

KONFESSIYA TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA O'ZBEKISTONDA FAOLIYAT
YURITUVCHI DINIY KONFESSIYALARNING TASNIFI

Karomatova Xurshida

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Otamurodov Donyor

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada konfessiya tushunchasining mohiyati, uning diniy jamiyatlarda tutgan o'ri va O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi asosiy diniy konfessiyalar tahlil qilinadi. Konfessiya, ma'lum bir diniy tizimni tashkil etuvchi guruhlarining e'tiqodlari, marosimlari va an'analari bilan ajralib turishini ifodalaydi. O'zbekistonda asosiy diniy konfessiyalar Islom (sunnilar), xristianlik (pravoslavlar, katoliklar, protestantlar), yahudiylik, buddizm, hinduyluk va zoroastrizmni o'z ichiga oladi. Mamlakatda diniy erkinlik va bag'rikenglikka asoslangan siyosat yuritilib, turli diniy e'tiqodlarga hurmat ko'rsatiladi. Maqola O'zbekistonning diniy konfessiyalari o'rtasidagi farqlarni va ularning ijtimoiy ahamiyatini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Konfessiya, diniy guruhlar, O'zbekiston, Islom, xristianlik, yahudiylik, buddizm, hinduyluk, diniy erkinlik, diniy bag'rikenglik, ijtimoiy ahamiyat.

Abstract: This scientific article analyzes the essence of the concept of confession, its role in religious societies, and the main religious denominations operating in the Republic of Uzbekistan. Denomination refers to the distinctive beliefs, rituals, and traditions of the groups that make up a particular religious system. The main religious denominations in Uzbekistan include Islam (Sunni), Christianity (Orthodox, Catholic, Protestant), Judaism, Buddhism, Hinduism, and Zoroastrianism. The country has a policy based on religious freedom and tolerance and respect for different religious beliefs. The article examines the differences between the religious denominations of Uzbekistan and their social significance.

Keywords: Confession, religious groups, Uzbekistan, Islam, Christianity, Judaism, Buddhism, Hinduism, Zoroastrianism, religious freedom, religious tolerance, social importance.

Абстрактный: В данной научной статье анализируется сущность понятия конфессия, ее роль в религиозных обществах, а также основные религиозные конфессии, действующие в Республике Узбекистан. Деноминация относится к отличительным верованиям, ритуалам и традициям групп, составляющих определенную религиозную систему. К основным религиозным конфессиям в Узбекистане относятся ислам (сунниты), христианство (православное, католичество, протестантство), иудаизм, буддизм, индуизм и зороастризм. В стране существует политика, основанная на религиозной свободе, терпимости и уважении к различным религиозным убеждениям. В статье рассматриваются различия между религиозными конфессиями Узбекистана и их социальная значимость.

Ключевые слова: Конфессия, религиозные группы, Узбекистан, ислам, христианство, иудаизм, буддизм, индуизм, зороастризм, свобода вероисповедания, религиозная толерантность, социальная значимость.

Kirish: Konfessiya Konfessiya (lot. confessio „e'tirof“), yoki din — ma'lum bir diniy ta'limot doirasidagi dinning xususiyati, shuningdek, e'tiqod qiluvchilar birlashmasi. Masalan, xristianlikda e'tirof etishda turli e'tiqodlardan foydalanadigan cherkovlar turli mazhablarni tashkil qiladi. So'zning umumiy ma'nosida „e'tirof“ atamasi ma'lum bir din doirasidagi ma'lum bir yo'nalishning sinonimidir. Ba'zan denominatsiya atamasi bilan aniqlanadi. Diniy konfessiya — muayyan diniy ta'limot doirasida shakllangan va o'ziga xos xususiyatlarga ega e'tiqod va

ushbu e'tiqodga ergashuvchilar jamoasi. „Konfessiya“ so'zining mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda, mutaxassislar hozirgi kunda dunyoda taxminan 1000 dan ortiq diniy konfessiyalar mavjud, deb hisoblaydilar. Konfessiya umumiy atama bo'lib, xristianlik, buddaviylik kabi katta dinlar ham, ularning zamirida paydo bo'lgan pravoslavlik, katoliklik, lamaizm, kabi yo'nalishlar ham shunday nom bilan atalaveradi. Diniy konfessiya tushunchasi, zamonaviy diniy va ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutgan atama bo'lib, insoniyatning diniy e'tiqodlari, amaliyotlari va ularning tuzilishiga asoslangan bir yoki bir nechta guruhlarining tashkil topishiga asoslanadi. Konfessiya, odatda, o'zining diniga xos e'tiqodlar, marosimlar, qadriyatlar va an'analar bilan ajralib turadigan, o'ziga xos diniy tizimni shakllantirgan jamiyatni ifodalaydi. Tarixdan ma'lumki, har qanday davlatning barqarorligi undagi xalqlar, millat va elatlarning huquq va erkinliklari faqatgina qonuniy hujjatlarda belgilanishiga emas, balki ularning amalda qay darajada o'z tasdig'ini topishiga ham bog'liqdir. SHu nuqti nazardan qaraganda, mamlakatimizda fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog'liq huquqlari nafaqat qonunan mustahkamlab qo'yilganini, balki amaliyotda ham ushbu Qonundan kelib chiquvchi tamoyillarga qat'iy rioya qilinayotganini hayotiy dalillar ham ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda diniy tashkilotlar hech qanday tazyiqlarsiz, cheklashlarsiz, emin-erkin faoliyat ko'rsatishlari uchun barcha sharoitlar yaratilganini ta'kidlash lozim. Shu bilan birga, diniy tashkilotlarning soni o'sganini ham qayd etish zarur. Xususan, 1990 yilda respublikamizda 119 ta diniy tashkilot (89 ta islomiy va 30 ta noislomiy) mavjud bo'lgan bo'lsa, 1991 yilda 179 taga (146 islomiy va 33 noislomiy) etdi, 2007 yilning yanvariga kelib esa, ularning soni 2227 tani (2046 ta islomiy, 181 ta noislomiy) tashkil etdi. Ulardan eng yirigi O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus Pravoslav cherkovining Toshkent va O'rta Osiyo Eparxiyasi, Evangel xristian-baptistlar cherkovi, Rim-katolik cherkovi, To'liq Injil xristianlari cherkovi, O'zbekiston Bibliya jamiyati. SHuningdek, 1987 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 8 ta yahudiy sinagogalari, 6 ta Bahoiylar jamoasi, 1 ta Krishnani anglash jamiyati, 1 ta Budda ibodatxonasida fuqarolar emin-erkin ibodat qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Mustaqillikkacha bor-yo'g'i ikkita islomiy diniy o'quv yurti (Toshkent islom instituti va «Mir Arab» madrasasi) bo'lgan bo'lsa, o'tgan yillar davomida ularning soni 11 taga etdi. Boshqacha aytganda, Imom al-Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, Buxorodagi «Mir Arab», Toshkentdagi «Ko'kaldosh», Qoraqalpog'istondagi «Beruniy», Namangandagi «Mulla Qirg'iz», Xorazmdagi «Faxriddin ar-Roziy», Andijondagi «Sayyid Muhyiddin Maxdum», Qashqadaryodagi «Xoja Buxoriy», Toshkentdagi «Xadichai Kubro» va Buxorodagi «Jo'ybori Kalon» xotin-qizlar o'rta maxsus islom bilim yurtlari va Imom al-Buxoriy nomidagi hadis ilmi markazidan iborat yaxlit diniy ta'lim tizimi yaratildi. 2000–2001 o'quv yilidan boshlab diniy ta'lim muassasalarida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Kasb-hunar ta'lim markazining Davlat ta'limi standartlari bo'limi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ta'lim standartlari va o'quv rejasi asosida o'qitish joriy qilindi. Sodda qilib aytganda, o'quv yurtlarida diniy va dunyoviy ta'limning uzviyligi ta'minlandi. 2000 yildan boshlab Toshkent islom instituti va o'rta maxsus islom bilim yurtlari bitiruvchilarini O'zbekiston musulmonlari idorasi yo'llanmasi bilan rejali ravishda respublikada faoliyat ko'rsatayotgan masjidlariga ishga taqsimlash va 2001 yil yanvar oyidan boshlab, ilk marta diniy bilim yurtlari talabalariga stipendiya berish joriy qilindi. Yuqoridagi kabi o'zgarishlarni boshqa konfessiyalar misolida ham ko'rish mumkin. Xususan, 1998 yildan Toshkent Pravoslav hamda Samarqand Protestant seminariyalari faoliyat ko'rsata boshladi, Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasining 125 yilligi va Evangel-Lyuteran jamoasining 100 yilligi nishonlandi.

Xulosa. Diniy konfessiya tushunchasi, zamonaviy diniy va ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutgan atama bo'lib, insoniyatning diniy e'tiqodlari, amaliyotlari va ularning tuzilishiga asoslangan bir yoki bir nechta guruhlarining tashkil topishiga asoslanadi. Konfessiya, odatda, o'zining diniga xos e'tiqodlar, marosimlar, qadriyatlar va an'analar bilan ajralib turadigan, o'ziga xos diniy tizimni shakllantirgan jamiyatni ifodalaydi. Ushbu maqolada konfessiya tushunchasi, uning mohiyati va O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar haqida so'z yuritiladi. Xalqimizning diniy va ma'naviy qadriyatlarining hozirgi demokratik jamiyat

qadriyatlari bilan uyg'unlashishi respublikamizning kelajakda yanada ravnaq topishi, jahon hamjamiyatiga qo'shilishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. A. Karimov Yuksak manaviyat yengilmas kuch.T.2008.
- 2.Hanifa Haydarova Dinshunoslik . Majmua .
- 3.Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
4. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 538-546.